


Meros

№ 2/2024

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ

АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ

Гувоҳнома № 0680-16.02.2018.
ISSN № 2181-9017

М У Н Д А Р И Ж А

ПРОФЕССОР АШРАФ АҲМЕДОВНИНГ 85 ЙИЛЛИГИ

Ҳасанов М. Кетди (Марсия) 3
Каримова С. Илмга бахшида умр 4
Абдуллаев Б., Куранбаева У. Профессор Ашраф Аҳмедов китоблари 10
Hogendijk J. Professor Ashraf Akhmedov and the Qanun Mas‘udi of Abu Rayhan Biruni 15
Demirci M. Al-Bīrūnī’s Contribution and Leading Role to Historical Criticism in Islamic Historiography 27
Жуманазаров А. Ғиёсиддин Жамшид Кошийнинг давомчиси 43
Куранбаева У. Абу Райҳон Берунийнинг “Фиҳрист”ига кирмаган асарлари хусусида 56
Каримова С., Ибрагимов Ф., Куранбаева У. Абу Райҳон Беруний илмий меросини ўрганишда замонавий технологиялар 66
Бўриев О., Фаромарз Ф. Фарғоний илмий меросида географик билимлар 79
Ибрагимов Ф. “Кичик тиб қонуни” амалий қўлланма сифатида 92

Bagheri M. A Newly Found Letter of Al-Kashi on Scientific Life in Samarkand 102
Абдуллаев Б. “Зижи жадиди Гурагоний” – Мирзо Улуғбек академиясининг энг муҳим ютуғи 123
Абдухалимов Б. Из Самарканда в Стамбул: Али Кушчи и выставка его рукописных коллекций 130

ТИЛШУНОСЛИК
Нурутдинов Ҳ.
“Элчи”, “элчилик” атамаларининг тадрижий тараққиёти тарихидан 138
Salimova Z. Turk va o‘zbek tillarida fitomorf birliklar orqali inson obrazining ifodalanishi 164

ЎзР ФА
Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Илмий кенгашининг 2024 йил 4 ноябрдаги 9-мажлиси қарорига кўра нашрга тавсия этилди.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
Баҳром Абдуҳалимов
(Бош муҳаррир)
Сурайё Каримова
(Бош муҳаррир ўринбосари)
Салимахон Эшонова
(Масъул котиб)
Наталья Каримова
(Рус тили муҳаррири)
Акрам Ҳабибуллаев
(АҚШ, Инглиз тили муҳаррири)
Роиқ Баҳодиров
Омонулло Бўриев
Дагели Жанин (*Германия)*
Абдусаттор Жуманазаров
Зоҳиджон Исломов
Одил Қориев
Аширбек Мўминов *(Туркия)*
Дурбек Раҳимжонов
Ўктамбек Султонов
Нурёғди Тошов
Аҳад Ходжаев
Дилором Юсупова
Санжар Ғуломов
Маҳмуд Ҳасанов

Манзилимиз:
100170. Тошкент ш., Мирзо Улуғбек кўчаси, 79
Мурожаат учун:
Телефон*: (8 371) 262-54-61,*
Факс*: (8371) 262-52-77*
E-mail*: beruni1@academy.uz*

08.09.2025 йилда босишга рухсат этилди. Қоғоз бичими 70x100 $^{1}/_{16}$. “Times New Roman” гарнитураси. Шартли босма табоғи 11. Адади 100 нусха. Буюртма рақами №: --. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриётида нашр этилди.

Z. SALIMOVA

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA FITOMORF BIRLIKLAR ORQALI INSON OBRAZINING IFODALANISHI

Flora nomlari har qanday til lug‘at tarkibining ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan unda xalq madaniyati, uning urf-odatlari, ramzlari, afsona va diniy qarashlari aks etadi. Shu bois xalq hayotini o‘simliklar dunyosisiz, tilini fitonimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Negaki, inson o‘simliklarni nomlash, uni bilish orqali odam o‘zining dunyo tasvirini yaratadi.

O‘simlik nomlari fitonimikada o‘zining o‘rganish obyekti va predmetiga ega. O‘simlik nomlari “fitonim”lar, ularning majmuyi “fitonimiya” deb yuritiladi.

Fitonimik lug‘at orqali tushunchani obrazli nominatsiya qilish masalasi tilshunoslikda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning lingvistik mohiyatida insonning o‘zini o‘rab turgan tirik tabiiy sharoitda o‘zini anglashi yotadi. Ushbu jarayon fitosferani antropotsentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda uyg‘un kechadi. Bir tomondan, u lug‘at tarkibining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, ikkinchidan, turli darajadagi til qatlamlariga kirib boradi.

Mazkur maqolada fitonim nomlari bilan bog‘liq ismlarning turk tili olam lisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash maqsadida turk tilidagi fitomorf komparativ birliklarning qo‘llanilishini tahlil qilish vazifasi qo‘yilgan.

Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Yer kurrasining deyarli hamma qismida uchraydigan o‘simliklarning tabiat va inson hayotidagi roli beqiyosdir. O‘simliklar dunyosi uning inson hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, madaniy hayot uchun alohida ahamiyatga ega. Bu esa tilshunoslikda o‘simliklarni leksik-semantik va lingvistik-madaniy jihatdan o‘rganishni taqozo etadi. Inson yaratilgandan beri, o‘simliklar bilan aloqada bo‘lgan. Ular gohida o‘simliklardan oziq-ovqat sifatida, gohida esa o‘z dardini davolash uchun dori sifatida foydalangan. Ikkala asosiy ehtiyojni ham qondiradigan o‘simliklar vaqt o‘tishi bilan qondirish ehtiyojlariga qarab yoki shakli o‘xshashligi

natijasida turli nomlar ola boshladi. Bu o‘sish insonning vaqt o‘tishi bilan boyib borayotgan so‘z boyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [9: 98]. Inson hayoti flora dunyosiga katta e’tibor qaratadi. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she’riy, ilmiy) ko‘rib chiqish davom etmoqda. O‘simliklar ko‘p jihatdan tekshiriladi va bu tekshiruvlarga muvofiq ravishda nomlar berila boshlandi. Hozirda barcha o‘simliklarning o‘z nomlari mavjud. O‘simliklarga nom berila boshlagandan keyin ularning nomlaridan insonlar o‘zlari uchun ism tariqasida ham foydalana boshlashdi. Shuningdek, nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlarning roli ko‘paydi.

Tirik tabiat obyektlari birliklari bilan shaxsni tavsiflashning muhim tomoni shundaki, inson uchun zarur bo‘lgan fazilatlar muhim bo‘lgan xususiyatlar va uning shaxsiyatini ochib beradigan xususiyatlar o‘rtasida aniq chiziq chizish deyarli mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan, odamning tashqi va ichki ko‘rinishini tushunishda, inson tafakkurining bir til darajasidan ikkinchisi tomon harakatlanishiga e’tibor qaratib, tarkibiy jihatdan murakkab “shaxs” tushunchasini tahlil obyekti qilib olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayon ma’lum bir til imkoniyatlariga bo‘ysungan holda, uni ko‘p darajali talqin qilishning bitta murakkab tizimini keltirib chiqaradi.

N.Pazliddinova o‘zining “O‘zbek tili fitonimlarining leksik-semantik xususiyatlari” nomli tadqiqotida hosilni odam va uning tana a’zolariga o‘xshatish asosida yuzaga kelgan fitonimlar: “Kelinbarmoq” // “Kelinbarmoq husayni”, “Kulja”, “Malikaning kipriklari” (uzum navlari), “Qariqiz” (qovun navi) kabilar, odamlarga xos belgi-xususiyatlarga nisbat berish asosida hosil qilingan fitonimlar: Juvonmarg handalak (handalak navi), “A’lochi” (behi navi), “Go‘zal” (bug‘doy, olcha, kungaboqar, olma navlari) kabilar haqida to‘xtalib o‘tgan [2: 15].

Dunyo tillarida inson tashqi ko‘rinishini ifodalashda meva nomlari ham faol ishtirok etadi. Mevalar bilan bog‘liq qiyoslar har bir xalqning yashash tarzidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Turk xalqida *nok, zaytun, xurmo, tog‘ pista, qovun, anor* kabi mevalar inson tashqi qiyofasini aks ettirishda keng qo‘llansa, o‘zbek millati uchun esa *olma, jiyda, yong‘oq, bodom, tarvuz* kabilar ahamiyatlidir.

Turk lingvomadaniyatida armut//nok (murut) so‘zi inson tabiatini aks ettirishda keng qo‘llanadi. Xususan, “armut gibi” o‘xshatishli birikma

yordamida “gap tushunmaydigan, anqov kishi”ga nisbatan ishlatiladi. *A*rmut *gibi ne demek? Çok* anlayışsız*, bön* [18]. Armut mevasi yordamida ko‘pincha salbiy xarakterli kishilar obrazi yaratiladi. Dangasa, biror ish qilmasdan foyda kutadigan, rizqni osmondan tushadi deb o‘tiradigan odamlarga nisbatan turk olam lisoniy manzarasida “*armut piş, ağzıma düş*” iborasi ham ishlatiladi. Bu o‘zbek lingvomadaniyatidagi “olma pish, og‘zimga tush” iborasining aynan o‘zidir. Bu esa turklar tafakkurida armut//nok (murut) bilan bir xil ma’no kasb etuvchi hech bir mehnat sarflamasdan bir nima kutadigan odamlarga nisbatan ishlatiluvchi tekinxo‘r obrazini ifodalashini ta’kidlash joizdir.

O‘zbek va turk tillarida meva nomlarining o‘shatish etaloni sifatida qo‘llanishi ham ko‘p uchraydi. Bunday o‘xshatish etalonlariga “gilos”, “olma”, “yong‘oq” kabi meva nomlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Turk tilida “ayva göbekli” metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva – bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo‘llanadi.

Har ikki tilda *kiraz // gilos* fitonimi keng tarqalgan. Uning yordamida qip-qizil lablar gilosga qiyoslangan. Masalan, *kiraz dudaklı//gilos dudoqli*, ya’ni *lablari gilosday* qiyosi orqali lablari qizil va qalin bo‘lgan ayollar ta’rifi uchun qo‘llangan. *Dildor gilosday qizil, chiroyli lablariga yoyilgan tabassum bilan boshini silkidi. Oltinrang sochlari yelkalari uzra sochilib ketgan, qayrilma kiprikli ko‘zlarini ochib-yumganda, gilosday qizil lablari o‘z-o‘zidan jilmayib qo‘yadigan qo‘g‘irchoqqa, ochig‘i, hammamizning havasimiz keldi* [1: 56]. O‘zbek xalq lingvomadaniyatida, shuningdek, “*labing gilosga o‘xshar, ko‘zing charosga o‘xshar*” deb aytiluvchi qo‘shiq misralari bor. Bu yerda lab gilosga o‘xshatilish asnosida ko‘z *charos*ga, ya’ni uzumning qora rangli naviga qiyoslanmoqda. Turklarda esa qoracha-dan kelgan odam ta’rifida *üzüm gibi* o‘xshatishi qo‘llanadi va bunda qora rangli uzum ma’nosi faollashtirilgan. Shuningdek, “*Çöpsüz üzüm’ yakın akrabaları hayatta olmayan kişi, üzüntü verici bir şeymiş gibi dursa da özellikle zengin koca arayan hanımlar için çift katlı ekmek kadayıfı durumudur* (Cho‘psiz uzum, ya’ni qon-qarindoshi yo‘q, kimsasiz odam) [17]. *Üzüm gibi* turklarda qorachadan kelgan ma’nosida keluvchi bu metafora turk tilida asosan qorachadan kelgan qariya kishini bildirsa, o‘zbek tilida bu ko‘rinish uzumning quritilgani – *mayizday* ifodasi yordamida beriladi.

Elma//olma har ikki til egalari tafakkurida deyari bir xil komporativ ma’noda keladi. Masalan, *elma yanaklı//olma yuzli* “yuzlari qip-qizil olmaga o‘xshagan kishilar”ga nisbatan turk tilida ham o‘zbek tilida ham ishlatiladi. O‘zbek folkloridan joy olgan “Yor-yor”larda ham, aytishuvlarda ham qizlarning yuzini olmaga o‘xshatish keng tarqalgan. Ayniqsa, “*Eronning olmasidek qip-qizil yuzlari*” o‘xshatishli birikmasi xalq orasida mashhur.

Turklarda ko‘proq ayollarning go‘zalligi anor mevasiga o‘xshatiladi: “Nar çiçeği” nomli she’rlari ham bor.

Canım kurban yoluna
Takıver yar koluna
Nar Çiçeğim, Yar Çiçeğim [15].

Tarjimasi

Jonim qurbon yo‘linga
Taqib ol, yor, qo’linga.
Anor gulim, yorim, gulim.

O‘zbek tilida “anordek yuzi” birikmasi ham mavjud bo‘lib, bu bilan sog‘lom insonlarning yal-yal yonib turgan yuzlari gavdalantiriladi. Qip-qizil, qon rangida; qizarmoq, qizil tusini olmoq kabi o‘xshatishlarda *anorday* etalonidan foydalaniladi. Miryusuf Xilvatiy banoras to‘nining keng etaklari orasida oyoqlari chalishib, o‘rnidan turdi, qo‘ltig‘idan ipak matoga o‘ralgan bir kitobchani olib, ochdi va anorday qip-qizil, yum-yumaloq yuzi ilhomdan lov-lov yonib, ovozi hayajondan titrab, o‘qiy ketdi (O. Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi).

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o‘rin tutadi. Zaytun qora bo‘lishi bilan birga, ham foydali, ham mazali bo‘lgani uchun *zeytin gibi* o‘xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Shuningdek, quruq meva nomlari har ikki xalq lingvomadaniyatida keng foydalaniladigan inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar hisoblanadi. Fıstık yong‘og‘i kishilar orasida sevgilisini yoxud yosh bolani erkalab chaqirishda *fıstığım* shaklida qo‘llanadi, shirinligiga qiyoslanadi. Xalq orasida *çekirdekten yetişme* iborasi ham keng tarqalgan bo‘lib, tug‘ma iste’dodli insonga nisbatlanadi. Bu fitonim çekirdek-pista bo‘lib, turk xalqi yashash tarzida ajralmas o‘ringa egadir.

Umuman olganda, meva nomlari orqali shaxsning u yoki bu xususiyatini tasvirlash, yaratish til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko‘rsatib beradi, ta’sirchanlikni oshiradi hamda tinglovchiga shaxs haqida aniq taassurot qoldiradi va idrok qilinishini osonlashtiradi.

Insonni xarakterlash uchun meva nomlaridan foydalanish jarayoni qadimiy hisoblanadi. Inson mavjud bo‘lgan paytdan boshlab tabiat bilan chambarchas birlikda yashab, atrofdagi daraxt va o‘simliklarga turli xil munosabatda bo‘lgan. Tabiat va inson uyg‘unligi dunyoning barcha lisoniy manzaralarida universaldir.

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog‘liq fitonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa, asosan, daraxtning kesilgan tanasi, o‘tin yoki to‘nka bilan bog‘liq birliklar orqali ifodalanadi.

Ushbu turdagi qiyosiy tadqiqotlar taqqoslangan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarini, shuningdek ma’lum bir tilda so‘zlashuvchilarning milliy mentaliteti va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Shunday qilib, fitonimik nominatsiyalar o‘zbek va turk tillarida insonning ichki dunyosi va tashqi ko‘rinishini belgilashda keng qo‘llanadi va ba’zi hollarda insonning har qanday xususiyatlariga (tashqi qiyofasi, aqliy qobiliyatlari, ichki hissiy holati, yoshi, kasbi, ijtimoiy holati) o‘ziga xos standart bo‘lib xizmat qiladi.

Har ikki til tafakkuridagi daraxt va mevalar bilan bog‘liq fitonimlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, inson ijobiy xususiyatlarini aks ettirishda ko‘proq mevali daraxtlarga qiyoslanilsa, uning tashqi ko‘rinishi manzarali daraxt nomlariga qiyoslanadi. Insonning ijobiy yoki salbiy xarakterlari esa shirin va achchiq meva nomlari yordamida ham aks ettiriladi.

Botanik nomlar, ayniqsa, meva nomlari bilan bog‘liq ismlar insonga tabiiylik va go‘zallik qo‘shadi. Botanika nomlari nafaqat noyob va abadiydir, balki ular atrof-muhit bilan aloqani aks ettiradi va tabiatga muhabbatni uyg‘otadi. Atirgul va yasemin kabi klassik variantlardan tortib, noodatiy nomlarga qadar har qanday afzallik va uslubga mos keladigan botanika nomi mavjud. Inson shaxsiyatiga botanika nomini qo‘shish tabiiy dunyoni hurmat qilish, dunyoga hayrat va minnatdorchilik tuyg‘usini uyg‘otishning bir usuli hisoblanadi. Meva nomlari orqali inson obrazini

ifodalash til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, ismlarni ko‘rib chiqayotganda, an’anaviy variantlardan tashqari mavjud botanika nomlarining keng doirasini o‘rganish kerak bo‘ladi. Buni o‘zbek tilida ham, turk tilida ham tatbiq qilish esa ikki til doirasida so‘z boyligining kengayishiga zamin yaratadi.

Mevaning madaniyatda talqin qilinishi esa insonlar orasidagi mazmunli munosabatlarni namoyish etadi. Bu timsol sevgi, do‘stlik, hurmat va barqarorlik kabi xos xususiyatlarni ifodalaydi. Bunday muhim timsoldan kelib chiqadigan madaniyatlar insonlarning bir-birlari bilan munosabatlarini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013.
2. Пазлитдинова Н. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари // Филол.фан. номз. дисс... автореф. Фарғона, 2018.
3. Bozorov H. Some remarks on phytonyms in uzbek folk-tales. Article. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) journal. – Termiz, 2022.
4. Kabak, T. Toplumsal Ekoloji Bağlamında Türklerin Doğa ile ilişkilerine Genel Bir Bakış: Mandıra Filozofu Filminin Düyündürdükleri. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi. – Istanbul, 2018.
5. “Kuntug‘mish” va “Ravshan” dostonlar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh nashriyoti. – Toshkent, 2011.
6. Sariyev B. Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü, Berdi Sariyev - Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz.Emrah Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) – Ankara, 2017.
7. Umarbekov O‘. ‘‘Odam bo‘lish qiyin” roman. – Toshkent, 2007.
8. Yasemin Y. Türkçe bitki adlarinin anlam bilimi açisindan incelenmesi / Doktora tezi. t.c. Sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü. – Ankara, 2020.
9. Yıldız Y. Bitkilerin adlandırılmasında benzetmenin rolü. Karaman-oğlu Mehmetbey Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi. – Ankara, 2021.

Internet saytlar:

10. https://astroneergo.ru
11. https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/
12. https://lotusmagus.com
13. https://lyricstranslate.com
14. https://m.sabah.com.tr
15. https://onedio.com/haber/serdar-ortac-nar-çiçeğim-sarki-sözleri.
16. https://scholarexpress.net
17. https://www.hurriyet.com.tr/mahmure/ruyada-uzum-gormek-ne-anlama-gelir-ruyada-uzum-yemek-tabiri-41400491
18. https://www.nedirnedemek.com/armut-gibi-ne-demek
19. www.wikipedia.org

Z. SALIMOVA

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA FITOMORF BIRLIKLAR ORQALI INSON OBRAZINING IFODALANISHI

Ushbu maqola turk tilida fitonimik birliklar, asosan meva nomlari orqali inson obrazini ifodalashdagi ahamiyati haqida. Fitonimik lug‘at orqali shaxsni obrazli nominatsiya qilish muammosi tilshunoslikda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning lingvistik qiymati sababi insonni o‘rab turgan tirik tabiat sharoitida o‘zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Ushbu jarayon fitosferani antropotsentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda ta’minlanib, keng tarqalmoqda. Bir tomondan, u so‘z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomondan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi. Bu darajalarning eng qudratlisi – matn darajasi ham chetda qolmaydi.

Turk tilida inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda fitonim nomlari, ularning qo‘llanilish darajasi va tilning so‘z boyligiga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *Til, inson qiyofasi, obraz, portret, fitomorf birliklar, ijobiy, salbiy, tashqi ko‘rinish, o‘xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, ma’no ko‘chishi.*

Z. SALIMOVA

ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА ЧЕРЕЗ ФИТОМОРФНЫЕ ЕДИНИЦЫ В ТЮРКСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

В данной научной статье речь идет о значении фитонимических единиц турецкого языка, главным образом, названий фруктов, в выражении образа человека. Проблема образной номинации человека посредством фитонимического словаря не утратила своей значимости в языкознании. Причина его языкового значения заключается в непрерывном процессе самосознания человека в окружающей его живой природе. Этот процесс постоянно поддерживается новыми формами антропоцентрической интерпретации фитосферы и широко распространяется. С одной стороны, оно охватывает все новые пласты лексики, с другой – проникает на разные уровни языка. Самый мощный из этих уровней – текстовый уровень.

Названия фитонимов, уровень их употребления и словарный запас языка обращают внимание при отражении образа человека в турецком языке и раскрытии его характера.

Ключевые слова: *Язык, человеческий облик, образ, портрет, фитоморфные единицы, позитив, негатив, облик, сравнение, образ, альтернатива, эквивалент, передача смысла.*

Z. SALIMOVA

REPRESENTATION OF THE HUMAN IMAGE THROUGH PHYTOMORPHIC UNITS IN TURKIC AND UZBEK LANGUAGES

This scientific article is about the significance of phytonymic units in Turkish, mainly fruit names, in expressing the human image. The problem of figurative nomination of a person through the phytonymic dictionary has not lost its importance in linguistics. The reason for its linguistic value lies in the continuous process of self-awareness of a person in the living nature that surrounds him. This process is constantly supported by new forms of anthropocentric interpretation of the phytosphere and is

spreading widely. On the one hand, it covers all new layers of vocabulary, on the other hand, it penetrates to different levels of language. The most powerful of these levels is the text level.

Phytonym names, the level of their use and the vocabulary of the language are paid attention to when reflecting the image of a person in the Turkish language and revealing their characters.

Keywords: *Language, human image, image, portrait, positive, negative, appearance, simile, image, alternative, equivalent, transfer of meaning.*